

## **BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUV FAOLIYATIGA MUNOSABAT MOTIVATSIYASINING SHAKLLANISHI.**

*Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga  
qarashli 60- umumiy o'rta ta'lim maktabining 1-toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi  
Mustayeva Gulandon Turayevna.*

***Annotatsiya:** Maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida bolaning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati, aqliy rivojlanishi, dunyo qarashi, kommunikativ savodxonligi va o'z- o'zini anglash qobiliyatini shakllantirish haqida fikr yuritilgan.*

***Kalit so'zlar:** mantiqiy tafakkur, kommunikativ savodxonlik, o'z-o'zini anglash.*

Shaxs tarbiyasi uning ijtimoiy- psixologik kamoloti har qanday davlatning bosh strategik masalalaridan biridir. Chunki, shaxsning ma'lum ezgu g'oyalar, intellektual talablar asosida tarbiyalamay turib, har jihatdan kamol topishiga qodir jamiyatni qurib bo'lmaydi. Zero, bu jarayonda eng avvalo ta'lim-tarbiya tizimi, uning mazmun-mohiyati, ayni paytda ta'lim tizimini takomillashtirishga xizmat qiluvchi psixologik tamoyillar muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, barkamol avlod tarbiyasi va uning mukammal ta'lim olishi masalalari davlat siyosati maqomi darajasida hal qilinayotganligi bugungi yoshlarimizning hech kimdan kam bo'lmagan porloq kelajagiga jiddiy e'tibor qaratilayotganligidan dalolatdir. " Ta'lim- tarbiya ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin, ta'lim- tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib ongni o'zgartirib bo'lmaydi, ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib esa biz ko'zlagan oliy maqsad-- ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi"- degan edi O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimov. Aytish joizki, bugungi kunda Respublikamizning barcha ta'lim muassasalarida o'quvchi shaxsiga, uning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti bilan bog'liq kelajagiga alohida e'tibor qaratilganligi, bu jarayonda har bir o'quvchidagi

o'quv faolligini namoyon etuvchi ichki munosabatlarning qay darajada tarkib topayotganligini o'rganish, tahlil qilish, shu asosda tegishli ilmiy- amaliy xulosalar chiqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, o'quvchi shaxsidagi ta'lim olish jarayoniga munosabatning takomillashuvi avvalo uning individualligi, betakrorligini hurmat qilish, uning o'z iqtidori, maslagi va imkoniyatlari qanday bo'lsa, xuddi shundayligicha, tabiiy tarzda qabul qilish va shu asosda uning rivoji uchun o'ziga xos ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlar yaratishni taqozo etadi. Bu vazifani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun pedagogik va psixologik fikrlarga asoslanish mumkin. Shu nuqtai nazardan, o'quvchilarning o'quv faoliyatiga nisbatan munosabat shakllariga qarab unga individual yondashuv usullari hamda amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga imkoniyat yaratdi. Umuman, munosabat motivatsiyasi muammosi bo'yicha turli soha vakillari, faylasuflar, sotsiologlar, psixologlar, psixofiziologlar va pedagoglar o'z munosabatlarini bildirib o'tishgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv faoliyatiga nisbatan munosabat motivatsiyasi shakllanishining o'ziga xos yosh, hududiy va ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganish quyidagilardir:

1) Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv faolligiga nisbatan munosabat motivatsiyasining shakllanishi va dinamikasi o'ziga xos yosh individual va ijtimoiy xususiyatlarga, bevosita o'quv jarayoniga bog'liqdir.

2) O'quv faolligiga munosabat motivatsiyasining namoyon etilishi, avvalo o'quvchi faolligini ta'minlashga xizmat qiluvchi va o'ziga xos tizimga ega bo'lgan o'quv komponentlari shaxs umumiy yo'nalganligi va tegishli qadriyatlarning qay darajada shakllanganligi bilan belgilanishi hamda baholanishi mumkin.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'quv faolligiga nisbatan munosabat motivatsiyasining shakllanishi dastavval maktabga munosabat motivatsiyasi asosida namoyon etiladi va bu jarayon faol- ijobiy indifferent mezonlarga bo'linadi. Jumladan, barcha mazkur mezonlarning namoyon etilishi kuzatiladi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'quv faolligiga faol-ijobiy munosabat motivatsiyasining shakllanishi o'quv faolliyatini mahsuldorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi

komponentlar tizimining shakllanganligi bilan belgilanadi va baholanadi. Munosabat motivatsiyasining namoyon etilishi aksariyat hollarda shaxs umumiy yo'nalganligi asosida tarkib topadi va bu jarayon o'z navbatida shaxs ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlashga xizmat qiladi. Tegishli qadriyatlar-ma'lum darajadagi munosabat motivatsiyasi ko'rsatkichlarning namoyish etilishida muhim o'rin tutadi. Har bir qadriyat yo'nalishi o'ziga xos munosabat motivatsiyasining tizimida tegishli o'rinlarga va qiyosiy tipik ko'rsatkichlar ko'lamiga ega ekanligi bilan xarakterlanadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'quv faolligiga nisbatan munosabat motivatsiyasining u yoki bu darajada shakllanishi o'ziga xos yosh, hududiy individual va etnopsixologik imkoniyatlar ko'lamiga ega ekanligi bilan alohida ajralib turadi. Jumladan, faylasuflar talqinida u shaxs va borliq o'rtasidagi ko'prik sifatida, psixologlar talqinida shaxsning " ichki va tashqi" faoliyati o'rtasidagi qiyosiy kognitiv va xulq- atvor komponentlari asosida namoyon bo'luvchi intilishlarning mahsuli sifatida e'tirof etiladi. O'quv faoliyati esa xuddi shu tadqiqiy yo'nalishlarga tayanadi va shaxs faoliyati tarkib topishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, inson munosabatlari uning xulq-atvorida, ichki dunyosining shakllanishida, barcha psixologik jarayonlarda muhim boshqaruvchilik rolini o'ynaydi. Bunday boshqaruvchilikning yuksak ijtimoiy saviyada tarkib toptirilishi esa insonning hayotdagi ayrim muvaffaqiyatsizliklarga nisbatan psixologik himoyalaniish vositasi sifatida xizmat qilish mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Boshlang'ich ta'lim. O'quv faoliyatiga munosabat motivatsiyasi. 2008 yil.
2. Yusupova F.I. O'quvchilar individual tayyorgarligini amalga oshirishning pedagogik- psixologik jihatlari. "Xalq ta'limi" jurnali.
3. Boshlang'ich ta'lim. Boshlang'ich sinflar uchun qiziqarli o'yinlar.
4. Boshlang'ich ta'lim. Ta'lim maqsadi- boshlang'ich ta'limning bosh mezon. 2019.
5. Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi.
6. Muloqot madaniyati va psixologiyasi. Pedagogik muloqot.